

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUVCHILARIDA IJTIMOY-HUQUQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Zulxaydarova Feruza Umarali qizi

TIQXMMI MTU Tayanch doktoronti

Annotatsiya

Mazkur maqolada kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida yoshlarning huquqiy madaniyati, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik muhit, innovatsion metodlar, motivatsion yondashuvlar hamda raqamli texnologiyalarning o'rni o'rganildi. Shuningdek, ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish, huquqiy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiya qilish hamda ijtimoiy muhitni samarali tashkil etish orqali o'quvchilarning huquqiy ongini rivojlantirish imkoniyatlari yoritildi. Tadqiqot natijalari kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar; *Kasbiy ta'lim, ijtimoiy-huquqiy kompetentlik, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, pedagogik imkoniyatlar, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy-huquqiy ta'lim*

Bugungi globallashuv jarayonida jamiyat taraqqiyoti yosh avlodning ijtimoiy faolligi, huquqiy madaniyati hamda fuqarolik mas'uliyatiga bevosita bog'liqdir.

Shu sababli ta'lim tizimida, ayniqsa kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Kasbiy ta'lim tizimi o'quvchilarni nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi, balki ularni jamiyatda faol shaxs sifatida shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Shu jihatdan kasbiy ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslash muhim hisoblanadi.

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirish muammosi pedagogika fanida shaxsni jamiyat hayotiga ongli ravishda moslashtirish, uning huquqiy ongini va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish bilan bog'liq dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida talqin etiladi.

Ushbu muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-huquqiy kompetentlik shaxsning faqat bilim darajasini emas, balki uning ijtimoiy xulq-atvori, qadriyatlari va huquqiy munosabatlarini ham qamrab oluvchi integrativ sifatdir.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda ijtimoiy-huquqiy kompetentlik masalasi, avvalo, kompetensiyaviy yondashuv doirasida yoritilgan[1].

Jumladan, A.V.Xutorskoy kompetentlikni shaxsning bilim, ko'nikma, tajriba va qadriyatlarining uyg'unlashgan tizimi sifatida talqin qilib, uning shakllanishi ta'lim jarayonining faoliyatga yo'naltirilgan tashkil etilishi bilan bog'liq ekanligini asoslaydi[2].

E.F.Zeer esa kasbiy ta'lim tizimida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirishni bo'lajak mutaxassisning mehnat bozoriga moslashuvchanligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida ko'rsatadi.

Ijtimoiy-huquqiy kompetentlikning fuqarolik va demokratik jamiyat bilan uzviy bog'liqligi J.Dyui asarlarida alohida o'rin egallaydi[3].

U ta'limni jamiyatning ijtimoiy tajribasini uzatish mexanizmi sifatida ko'rib, huquqiy ong va ijtimoiy faollikni rivojlantirish ta'limning muhim vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

G.Biesta esa zamonaviy ta'limda shaxsning ijtimoiy mas'uliyati va huquqiy subyektivligini shakllantirishni ta'lim sifatining muhim mezon sifatida asoslaydi.

Kasbiy pedagogika sohasidagi tadqiqotlarda pedagogik jarayonni optimallashtirish masalalarini tahlil qilib, shaxsning ijtimoiy va huquqiy jihatdan rivojlanishi ta'lim jarayonining maqsadga yo'naltirilganligi va tizimlilik bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi[4].

V.P.Bespalko esa pedagogik texnologiyalar orqali shaxsning ijtimoiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ijtimoiy-huquqiy kompetentlik masalasi ko'proq tarbiya, ijtimoiylashuv va kasbiy tayyorgarlik bilan bog'liq holda o'rganilgan.

Jumladan, R.{.Djurayev ta'lim mazmunini loyihalash jarayonida huquqiy va ijtimoiy bilimlarning integratsiyasi shaxsning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi[5].

N.A.Muslimov kasbiy ta'lim pedagogikasiga oid tadqiqotlarida o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishni kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi.

Pedagogik imkoniyatlar tushunchasini tizimli yondashuv asosida tahlil qilgan M.S.Kagan, A.D.Ursul, R.F.Abdeev, V.A.Shtoff ta'lim tizimini murakkab ijtimoiy tizim sifatida baholab, unda shaxsning ijtimoiy-huquqiy rivojlanishi tashkiliy-pedagogik, axborot-kommunikativ va madaniy omillarning uyg'unligi orqali ta'minlanishini ta'kidlaydilar[6].

Umuman olganda, yuqorida tahlil qilingan olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirish murakkab, ko'p qirrali pedagogik jarayon bo'lib, u ta'lim mazmuni, metodlari, shakllari va pedagogik shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshiriladi.

Mazkur ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan nazariy xulosalar ushbu tadqiqotda ijtimoiy-huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqish uchun mustahkam metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi[7].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy kompetentligini rivojlantirish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir.

Pedagogik muhitni to'g'ri tashkil etish, innovatsion metodlardan foydalanish, motivatsion yondashuvlarni qo'llash hamda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega[8].

Shuningdek, huquqiy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiya qilish o'quvchilarning fuqarolik mas'uliyatini oshirishga hamda ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании. – М.: Эйдос, 2013. – 256 с.
- 2.Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – М.: Академия, 2006. – 240 с.
3. Дьюи Дж. Демократия и образование. – М.: Педагогика, 2000. – 384 с.
4. Biesta G. Good Education in an Age of Measurement. – London: Routledge, 2015. – 152 p
5. Бабанский Ю.К. Оптимизация педагогического процесса. – М.: Педагогика, 1982. – 192 с.
6. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
- 7.Каган М.С. Системный подход и гуманитарное знание. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1991. – 384 с., Урсул А.Д. Образование для устойчивого развития. – М.: РАН, 2013. – 312 с., Абдеев Р.Ф. Философия информационной цивилизации. – М.: ВЛАДОС, 2007. – 336 с., Штофф В.А. Моделирование и системный анализ в педагогике. – М.: Наука, 2006. – 288 с.